



# TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 5 2024-YIL 27-MAY



Bir necha yillardan buyon an'anaga aylangan, talaba-yoshlar bilan bir qatorda ustozlarni ham ko'nglidan o'chmas joy olgan "Talabalik bahori" festivali bu yil ham Toshkent tibbiyot akademiyasida keng miqyosida o'tkazildi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalari "Talabalik bahori" yoshlar festivalini bahoriy jo'shqinlik ruhida kutib oldilar. Festival Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalarining ilg'or g'oyalarga turtki bo'lib, ularni yoshlarga xos shijoat, intiluvchanlik va aniq maqsadli, istiqbolli rejalariga sabab bo'ldi. Shuningdek, milliylik timsoli folklor chiqishlar tanlovida barcha fakultetlarning folklor jamoalari, jumladan 1-son Davolash fakultetining "Nastarin" jamoasi, 2-son Davolash fakultetining "Ko'hinur" jamoasi, Xalqaro fakultetning "Indian tigers" jamoasi, Tibbiy profilaktika, Jamoat salomatligi fakultetining "Nihol" jamoasi, Tibbiy pedagogika, Stomatologiya, Xalq tabobati va Pediatriya fakultetining "Boychechak" jamoasi, Farmatsiya, menejment, Tibbiy biologiya, Biotibbiyot muhandisligi va OMX fakultetining "Bog'ishamol" jamoalari aytishuvlar va qiziqarli musiqiy-badiiy dasturlari bilan ishtirok etdilar.

"Boychechak" jamoasi o'z chiqishlari bilan hakamlar ha'yati qalbidan joy oldi. Xususan ko'tarinki ruhda o'tgan bu festivalda qo'shni davlatlar hamda chet eldan kelgan talabalar ham o'z chiqishlari bilan qatnashdi. Bundan ko'rib turibmizki bu tadbir bizga nafaqat bahor kayfiyatini, balki xalq o'rtasidagi hamdo'stligimizni yanada mustahkamlash uchun ko'prik vazifasini o'tadi.

Milliy qadriyatlarimizni hamda zamonaviy dasturlarni o'zida jamlagan bu tadbirlar biz yoshlarni darsdan keyingi bo'sh vaqtimizni mazmunli o'tkazish uchun qulay imkoniyatdir. Milliyligimiz, o'zimizga

## "TALABALIK BAHORI – 2024"



aytishuvlar va milliy raqslar kabi qiziqarli dasturlar darhaqiqat insonni quvontiradi. Qizg'in kechgan folklor bahslarida barcha



jamoalar o'z jamoalari bilan ishtirok etdi. Shundan so'ng navbat yakkaxon milliy raqs dasturiga berildi. Bunda talaba-yoshlarimiz milliy tanovar, lazgi kuylari va turli viloyatlarning milliy raqslari bilan hakamlar va tomoshabinlar olqishiga erishishdi. Ayniqsa, chet ellik tengdoshlarimizning milliy raqslari gulduros qarsaklar bilan qarshi olindi. Yakkaxon zamonaviy raqs dasturida o'zimizning o'zbek yigit va qizlarimiz o'z mahoratlarini namoyon qilishdi.

Darhaqiqat yakkaxon raqs dasturidagi qo'g'irchoq "Barbe" raqsi butun zalni o'ziga qarata oldi. Keyingi navbat guruh bahslariga zamonaviy va milliy guruh bahslari yanada qizg'in va shoularga boy bo'ldi.

Ta'kidlash lozimki hakamlar ha'yatiga

"Milliylik timsoli folklor chiqishlar" tanlovida 1-o'rin Farmatsiya, menejment, Tibbiy biologiya, Biotibbiyot muhandisligi va OMX fakultetining "Bog'ishamol" jamoasi qo'lga kiritdi. 2-o'rin 1-son Davolash fakultetining "Nastarin" jamoasi va 3-o'rinni Tibbiy pedagogika, Stomatologiya, Xalq tabobati va Pediatriya fakulteti "Boychechak" jamoalari sazovor bo'lishdi.

"Boychechak" jamoasi talabalari milliy raqslar, yakkaxon zamonaviy va suxandonlik dasturlari ijrosida tengsiz topildi.

Ko'tarinki ruh bag'ishlaydigan bunday tadbirlar yanada ko'payaversin. Shunday tadbirlarni tashkillashtirish orqali milliyligimiz yodga olinadi, talabalar rag'batlantiriladi, ochilmagan qirralar va iste'dodlar yuzaga chiqib boshlaydi.

Hayotimizda o'chmas iz qoldirgan bunday tadbir o'ylaymizki har bir talabaning xotirasida umrbod saqlanadi. Toshkent tibbiyot akademiyasida o'tkaziladigan bunaqa tadbirlar bardavom bo'lsin. Kelgusida bunday tadbirlar sonini yanada ko'paytirish va qo'shni universitet talabalarini ham bunga jalb qilish festivalning mavqeyini yanada oshiradi, iste'dodli talabalarimiz uchun esa yaxshi imkoniyat sanaladi.

**Samariddin SA'DULLAYEV,**  
**Hamidullo ALISHEROV,**  
**Pediatriya ishi fakulteti talabalari,**  
**"Doktor reportyor" debat yoshlar klubi a'zolari**



*Doimo olg'a intilish – inson tabiatining asosi.*



## ADIBLAR VA BO'LG'USI SHIFOKORLAR UCHRASHUVI



Toshkent tibbiyot akademiyasida "Ma'rifat ulashib" loyihasi doirasida tadbir tashkil etildi. Unda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari Otabek Jo'raboyev, Ziyovuddin Mansur va Nosirjon Jo'rayev, shuningdek, professor-o'qituvchilar hamda talaba-yoshlar ishtirok etdi.

O'zbek adabiyoti va she'riyatining yorqin vakillari o'zlarining ijodiy so'z va she'rlari orqali talaba-yoshlarimizning tibbiyot sohasiga tegishli eng ta'sirchan va ijtimoiy hayot uchun foydali jihatlari xususida fikrlarini bayon qilishdi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar yoshlarni qizg'in tabriklab, beg'uborlik ularni tark etmasligini tilashdi. Yurtboshimiz va barcha ota-onalar ularga qattiq ishonishini, Vatani kelajagi ularga bog'liq ekanini, shu bois puxta bilim olishlari, ajdodlarga munosib avlod bo'lishi zarurligini ta'kidlashdi. Akademiyadagi ijodkor talabalarning chiqishlari adiblarimizda katta taassurot qoldirdi. Shuningdek, adiblar tashrif davomida ta'lim maskanida talabalar uchun yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

Mazkur tadbirni o'tkazishdan maqsad mamlakatimizda milliy g'oyani keng targ'ib qilish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, jamiyatda adabiyot va kitobxonlikni yanada rivojlantirishdan iborat.

Mehmonlar va akademiya rahbariyati,

professor-o'qituvchilari va talabalar birgalikda "Yashil makon" loyihasini rivojlantirishga kirishdi. Akademiya va Olmazor tumanidagi 22-maktab, 134-maktablar hududida turli manzarali va mevali daraxtlar ko'chatlari ekildi.

Bugungi kunda Toshkent tibbiyot akademiyasining talabalari o'rtasida ko'plab ma'naviy-ma'rifiy hamda adabiy, badiiy tanlovlar bir qator istiqbolli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Iqtidorli talabalar tomonidan tayyorlangan chiqishlar bevosita davlatimiz rahbari tomonidan adabiyot sohasi yuzasidan ilgari surilayotgan dasturlamal masalalarga bo'lgan amaliy yondashuv desak ayni haqiqatdir.

Yurtimizda turli sohalarda olib borilayotgan islohotlar qatorida ertamiz egalari bo'lgan yoshlarimiz manfaatlarini himoya qilish, ularning jahon andozalariga muvofiq bilim olishi, ma'naviy kamol topishi uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratilgan.

Toshkent tibbiyot akademiyasida "Ma'rifat ulashib" loyihasi bo'yicha yoshlar ma'naviyatini yanada yuksaltirish, dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan kitoblar ko'rgazmasi, yurtimizdagi ilm, fan, san'at va madaniyat vakillari hamda "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zolari ishtirokida uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Sport - sog'lomlashtirish ishlari juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, "Teatr ko'rinishlari",

Surat chizishga qiziqadigan yoshlar "Pannoga rasm chizish" dasturida o'z orzularini surat orqali ifoda etishdi. Milliyligimiz aks etgan xalq badiiy va amaliy san'ati yo'nalishlari haqida yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi va iste'dodli yoshlar ishtirokida konsert namoyish etildi.

Kitob - zamonlar to'loqida suzuvchi, o'zidagi ma'nolar xazinasini ajdodlardan avlodlarga avaylab yetkazuvchi tafakkur kemasidir. Uning har bir sahifasi hikmatlarga boy va dillarga ro'shnoqlik kiritib, ezgu tuyg'ularni uyg'otmoqqa qodir. Kitobxonlikni keng targ'ib qilish, kitobxonlar salmog'ini oshirish hamda Prezidentimiz tashabbusi bilan ilgari surilgan 5 muhim tashabbusni yoshlar orasida keng targ'ib qilish asosiy maqsad qilib belgilangan. Davlatimiz rahbarining Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'liga olib borayotgan oqilona siyosatining bosh g'oyasi inson va uning qadrini ulug'lashdan iborat bo'lib, mana shunday adolatli yondashuv tufayli odamlarimizning nafaqat yashash sifati, balki dunyoqarashi ham o'zgarib, daxldorlik tuyg'usi, Vatani ravnaqiga hissa qo'shishga intilish hissi kuchaymoqda.

**B.ISABEKOV,**

**Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi uslubchisi, O.XUDOYOROVA, tyutor**

## SHVETSIYA BILAN TIBBIYOT SOHASIDAGI HAMKORLIK ALOQALARI YANADA MUSTAHKAMLANMOQDA

Sog'liqni saqlash vazirining birinchi o'rinborasi Davron Sultonov boshchiligidagi vazirlik mas'ullari hamda Toshkent tibbiyot akademiyasi o'quv ishlari bo'yicha prorektori Shuhrat Boymuradovdan iborat delegatsiya Shevtsiyaning Stokgolm va Gyoteborg shaharlarida sog'liqni saqlash bo'yicha hamkorlik aloqalarini rivojlantirish yuzasidan ushbu mamlakatda bo'lishdi.

Tashrifning birinchi kuni Stokgolm shahridagi Karolinska Institutet universiteti rektori Annika Ostman Wernerson bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda o'zaro hamkorlik memorandumini imzolash, talabalar mobilligi, ilmiy loyihalarni amalga oshirish va ilmiy nashrlar chop etish, (PhD) va magistratlar tayyorlash bo'yicha hamkorlik qilish yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

Ma'lumot uchun Karolinska Institutet universitetida Alfred Nobel faoliyat yuritgan. Butun dunyoga mashhur Nobel mukofotining

fiziologiya va tibbiyot yo'nalishi bo'yicha komissiyaning 50 dan ortiq a'zolari ushbu universitet professorlari hisoblanib, butun dunyodagi ilmiy ishlarga baho berishda ishtirok etdi.

Shuningdek, delegatsiya vakillarining Shevtsiyaning bir qancha yetakchi universitet, klinika va kompaniyalari bilan uchrashuvlari o'tkazildi.

**G'iyosiddin ASALOV,**

**Allergologiya, klinik immunologiya va hamshiralik ishi kafedrasasi assistenti**



*Inson bor ekan, xotira – muqaddas.*



**Qadriyatlar o'tmish bilan hozirgi kun o'rtasidagi vorisiyatni ta'minlaydi. Bir so'z bilan aytganda milliy qadriyatlarimiz o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan bebaho qadriyatlari hisoblanadi.**

Bunday tadbirlar orqali biz o'zligimizni saqlashga, o'zimizga bekligimiz, ajdodlarimizdan meros qolgan jasurlik, mardlik kabi xislatlarni o'zimizda yana bir bor his etamiz.

Poytaxtimizdagi Adiblar xiyobonida "Milliy qadriyatlar sayli" doirasida adabiy-mar'ifiy haftalikning ochilish marosimi

kishi bexos o'zini Jizzaxda turgandek his qildi. Baxmalning tilni yorar olmasi, Baxmal tandir go'shti, tandir go'shti, 10 xildan ortiq somsalari, keskan oshi, pechaklar, qozon zog'ora noni, palovi, kabobi kabi noz-ne'matlardan viloyatning nafasi ufurib turibdi. Jizzax so'zanalari o'ftob nurida yal-yal yonib, yoshlar qalbida g'urur hissini uyg'otdi. Festival jarayonlarida viloyatning asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlari, etnografiyasi, urf-odatlarini keng yoritib berildi.

turli xil aytishuvlar, laparlar, milliy o'yinlar va raqslar kishiga kayfiyat bag'ishladi.

Milliyligimiz doimo bizga dalda hisoblanib, tarixda o'tgan Ibn Sino, Beruniy va Mirzo Ulug'bekdek kabi buyuk allomalarimizdan kuch va qudrat olishga undaydi. Zero, o'z tarixini, qadriyatini bilmagan inson manqurt insondir.

Bu kabi tadbirlar ko'payaversin, asosiysi talaba yoshlar bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanib, izlanishga turki beradi. Bu esa yangilik qilishga va rivojlanishga imkon beradi.



## MILLIY QADRIYATLAR SAYLI

bo'lib o'tishi darhaqiqat kishining qalblariga sokinlik, quvonch va baxt olib kiradi.

Bu yilgi tadbirimizda turli universitetlarning 500 dan ziyod talabalar ishtirok etgani so'zimizning yaqqol isboti sanaladi. Shuningdek, talabalar tomonidan folklor, xalq og'zaki ijodidan chiqishlar, adiblar hayoti va ijodiga bag'ishlangan sahna ko'rinishlari namoyish etildi, g'azal va she'rlar aytildi, kuy-qo'shiqlar jarang sochdi, kitoblar ko'rgazmasi o'tkazildi.

Shuningdek, Respublikamiz hududlarining milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlari tarannum etildi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi jamoasi Adiblar xiyobonida "Milliy qadriyatlar sayli" doirasida Jizzax viloyati milliy an'analari bilan yo'g'rilgan qadriyatlarimizni namoyish etdi. Adiblar xiyobonida 12 ta viloyatlar, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasi madaniyati, milliy taomlari, milliy liboslari va urf-odatlarini tarannum etilgan bo'lib, bir paytning o'zida har tomondan milliy musiqalari, yor-yor va laparlar jarangladi. Jamoamiz 20 dan ortiq soha bo'yicha qadriyatlar va an'analarni havas qilgudek darajada tarannum etdi. Shuningdek, Jizzax viloyatiga xos bo'lgan 50 dan ortiq milliy taomlar ko'rgazmasida bo'lgan

Alpqomat yigitlarga do'ppilar viqor va ko'r-k bag'ishlab turishi bilan bir qatorda ularda milliy g'urur hissini ham uyg'otdi. Xiyobonga kelgan har bir mehmon Toshkent tibbiyot akademiyasi chiqishlaridan bahramand bo'lishdi.

Xiyobonga kirganingiz bilanoq uzoqdan lazgi kuyi qulog'ingizga chalinardi, qizlar raqs tushishar, quvonarlisi hamda hayratlanarlisi shundaki bu o'zbek qizlari emas balki hindistonlik qizlar - ular Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalar edi. Hindistonlik qizlar ijrosidagi "Lazgi" raqsi haqiqatdan mehmonlarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi. O'ylaymizki biroz hayratga soldi ham. Hindistonlik qizlarning shijoati, o'zbek milliy san'atiga va qadriyatlarimizga nisbatan hurmati, ular ijrosidagi jozibador raqs harakatlaridan sezilib turdi.

Bu esa xorijiy talabalarning Toshkent tibbiyot akademiyasida o'tayotgan har bir kuni mazmunli, maroqli, ona Vatani yanglig' behavotir ekanligini bildiradi.

Xorijlik talaba yoshlarning ko'zida quvonch va baxt ufurib turushi - bizning haqiqatdan mehmondo'st xalq ekanligimizning yana bir isboti desak adashmagan bo'lamiz. Shunday umummilliy qadriyatlarimizni o'zida jamlagan festivalda

Biz yerning qaysi qit'asida bo'lmaylik milliyligimiz doimo biz bilan. Qadriyatlarimiz esa doimo bizning o'zligimizda yashaydi.

- O'zbek xalqining asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlari ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan, - deydi Pediatriya ishi fakultetining 2-bosqich talabasi Bosimjon Hokimov. - Akademiyada o'tkaziladigan bu kabi tadbirlardan o'zimga motivatsiya olgan holda hozirda turli yo'nalishlarda izlanishlar olib bormoqdaman. Akademiyada turli olim va akademiklar haftaligi, jumladan K.Zufarov haftaligida ham faol ishtirok etishni maqsad qilib qo'ydim. Ishonamanki, kelajakda bu kabi izlanish, o'qib-o'rganishlar o'z mevasini beradi.

Qadriyatlar xalqimizning bebaho boyligi, jamiyatimiz, millatimiz, davlatimiz taraqqiyotining asosiy omillaridan biri. Buyuk ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan bebaho ma'naviy boylik - asl qadriyatlarimizning sarchashmalaridir.

**Gulchehra MIRZAYEVA,**

**TTA matbuot kotibi,**

**Samariddin SA'DULLAYEV,**

**Pediatriya ishi fakulteti talabasi,**

**"Doktor reportyor" debat yoshlar klubi**

**a'zosi**



*Ajdodlar matonati va jasorati avlodlar uchun namunadir.*



## Deontologiya saboqlari

## TIBBIYOT XODIMINING AXLOQI, SAMIMIYATI, MUOMALA MADANIYATI VA MULOQOT SAN'ATI – UNING VIJDONI KO'RSATKICHIDIR

**“Shifokorda hamma narsa chiroyli bo'lishi lozim, kiyim-kechagi ham, chehrasi ham, muomala madaniyati ham”, degan edi shifokor va yozuvchi Anton Pavlovich Chexov.**

Darhaqiqat, vijdon – shifokorning eng muhim xislatlaridan biri bo'lib, uning muomala madaniyati va muloqot san'ati bu qurollar orasida eng ta'sirli va ta'bir joiz bo'lsa hammabopligidir.

Olimlarning hisob-kitoblariga qaraganda bugungi kunda kasb-korlarning turi va jabhalari 1000 dan oshadi. Ana shunday ko'p kasbu korlar ummonida tibbiyot xodimi, deb atalmish kasb eng nozigi va eng nafisi hisoblanadi, negaki bu xodimlar bevosita inson bilan, uning taqdiri, turmush darajasi va yashashi sifati bilan shug'ullanadi. Binobarin, shifokorning ilk quroli – uning nutqi madaniyati va nutq odobidir. Ma'lumki, “O'zbek tilining izohli lug'ati” kitobi 1-jild, 439-sahifada madaniyat – o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik, ma'rifatlilik degan mazmun-mohiyatlarni anglatadi. Ushbu kitobning 1-jildi, 26-sahifasida keltirilishicha odob – jamiyatda, kishilar bilan muloqotda o'zini tuta bilish, axloq, tarbiya va uning normalari degan tushunchalarni beradi. Nutq odobi deb yuritiladigan qoida va ko'rsatmalarda sodda va o'rinli gapirish, qisqa va mazmundor so'zlash, ezmalik, laqmalikni qoralash, keksalar, ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to'g'ri rost va dadil gapirish, yolg'onchilik, tilyog'lamalik, riyokorlikni qoralash haqida gap boradi.

Buyuk bobokalonlarimiz qoldirib ketgan boy ilmiy, adabiy va badiiy meroslarda

insonning muomala madaniyati xususida ko'plab bitiklar bor. Jumladan Mahmud Qoshg'ariy “Devonu lug'otut turk” asarida “Erdam boshi til”, ya'ni odobning ibtidosi tildir degan bo'lsa, ulug' Navoiy bobomiz: “Tilga ixtiyorsiz, elga e'tiborsiz”, “Oldiga kelganni yemoq hayvonning ishi, og'ziga kelganni demoq – nodonni ishi”, “Odam borki odamlarning naqshidir, Odam borki hayvon undan yaxshidir” qabilidagi o'g'itlari, dono xalqimizning “O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir”, “Yaxshi so'z bilan ilon inidan, yomon so'z bilan pichoq qinidan chiqadi” qabilidagi maqollari muammo dolzarbligini yanada ta'kidlaydi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi mustaqil diyorimiz tibbiyot oliygohlari orasida yetakchi muassasa bo'lganligi bois barcha sohada yetuk mutaxassislar faoliyat yuritgan va olimlarimiz tomonidan meditsinaning dolzarb muammolari yechimiga qaratilgan ko'plab darsliklar, o'quv qo'llanmalari, monografiyalar, ilmiy, ilmiy-ommabop kitoblar chop etilgan. Jumladan, kasb etikasi va tibbiy deontologiya bo'yicha yetuk mutaxassis, deontolog professor, Angliya Kembrij Xalqaro Biografiya markazining “XX-asrning intellektuali” kumush medali sovrindori, AQSH Biografiya institutining “2000-yilning eng nufuzli 100 kishisi” kitobiga kiritilib, oltin medaliga sazovor bo'lgan Erkin Yo'ldoshyevich Qosimov ushbu dargohda uzoq yillar ichki kasalliklar propedeutikasi kafedrasini boshqargan. Olim va adibning 2002-yilda chop etilgan “Shifokorning nutq madaniyati va bemor bilan muloqot san'ati” kitobi bu boradagi eng qamrovi keng izlanishlarni

o'z ichiga olgan o'quv qo'llanmasi bo'lib, bugungi kunda har bir shifokorning stol usti qo'llanmasiga aylanib ulgurgan. Ulug' pediatr olim, akademik S.Shamsiyev qalamiga mansub “Meditsinskaya etika v pediatrii” monografiyasi 1979-yilda chop etilgan bo'lib uzoq yillar pediatrlar, bolalar jarrohlari, neonatologlar uchun dasturulamali bo'lib xizmat qilgan bo'lsa-da, bugungi kun sivilizatsiyasi, mustaqillik yillari talablari va milliy mafkuramiz mezonlariga javob bera olmaydi. Shu boisdan ham tibbiyot oliygohlari, o'rta maxsus tibbiyot bilim yurtlarida bu borada paydo bo'lgan ma'naviy bo'shliqni to'ldirish, yangi davrga, sivilizatsiya odimlariga va mustaqil yurtimizda kechayotgan tibbiy islohotlarga mos keladigan adabiyotlar yaratish davri keldi.

“Tibbiyot – xalq va davlat boshqaruvi orasidagi ko'prikdir”, degan edi yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev. Demakki, vaqt o'tishi bilan yurtimiz ahliga tibbiy xizmat ko'rsatishni tobora takomillashtira borishimiz, bu borada jahon andozalari darajasiga chiqib borishimiz zamon talablaridan. Kelajak avlodlarimizga tibbiy xizmat ko'rsatishni o'z zimmlariga oluvchi bolalar shifokorlarini har tomonlama ma'naviy va ma'rifiy boy, muomala madaniyati yuksak, muloqot san'ati barkamol qilib tarbiyalash hammamizning burchimizdir.

**Alijon FAQIROV,**  
Yevropa tabiiy fanlar akademiyasi  
akademigi,  
**Outbiddin NIZOMOV,**  
Turon xalq yozuvchisi, Turon FA  
akademigi

## TALABALAR TIBBIYOT ILMINING ZAMONAVIY YUTUQLARI

**Toshkent tibbiyot akademiyasida IV Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.**

Xalqaro yosh olimlar ishtirok etgan anjumanda 30 dan ortiq respublika va xorijiy oliy ta'lim muassasalarining 250 dan ortiq talabalar qatnashdi.

Zamonaviy tibbiyotning dolzarb muammolari muhokamasi davomida utar o'zaro fikr almashdi. Konferensiya I-seksiya “Maxsus terapevtik yordam”, II-seksiya “Jarrohlik kasalliklari va tor mutaxassisliklar”, III-seksiya “Tibbiyot diagnostika”, IV-seksiya “Morfologiya”, V-seksiya «Ijtimoiy gumanitar fanlar va tibbiyotda informatsion texnologiyalar», VI-seksiya “Jamoat salomatligi va menejment” ajratilgan holda, har bir seksiya va yo'nalishlar bo'yicha ishtirokchilar online va oflayn tarzda ma'ruzalari bilan faol ishtirok etishdi.

Mazkur anjuman yosh olimlarda tibbiyotga oid bilimlarni

mustahkamlash va amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini shakllantirdi.

– Darhaqiqat biz Toshkent tibbiyot akademiyasida juda katta va muhim konferensiyada ekanimiz sog'liqni saqlash tizimidagi yangi texnologiyalarning qanday ishlashi va ularning amaliyotda qo'llanilishi, akademiya faoliyati 100 yil oldin qanday tashkil topganligi va qanday davom etayotganligi haqida mulohazalar yuritdik. Men hozirgi kunda Turkiyaning nufuzli va katta universitetida ma'ruzalar o'qib eshittiraman. Men O'zbekistonda, Toshkentda bo'lganimdan xursandman. Sog'liqni saqlash tizimida texnologiyalar va sun'iy intellektlar, amaliy ko'nikmalarni takomillashtirish to'g'risida tajriba almashdik, – deydi Turkiya Tibbiyot Markazi Hamshiralik bo'limi direktori Emel Gumush.

**Diyoraxon ADHAMJONOVA,**  
TTA talabasi, “Doktor reportyor” debat klubi faoli



***Haqiqiy fazilat daryoga o'xshaydi,  
qanchalik chuqur bo'lsa,  
shunchalik sokin oqadi.***



“Akusherlikning dolzarb muammolari va ularni yechish yo‘llari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya Toshkent tibbiyot akademiyasi Oilaviy tibbiyotda akusherlik va ginekologiya (kafedra mudiri prof. D.Najmutdinova) va Akusherlik va ginekologiya (kafedra mudiri F.Shukurov) va TTA Termiz filiali Akusherlik va ginekologiya (kafedra mudiri D.Xurmatova), Buxoro tibbiyot instituti Akusherlik va ginekologiya (kafedra mudiri D.Tuksanova), Andijon tibbiyot instituti (dotsent G.Axmadjonova) kafedralari hamkorligida o‘tkazildi.

## TTA TERMIZ FILIALIDA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Gibrid shaklida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyada kafedramiz professor-o‘qituvchilari o‘z ma‘ruza va mahorat darslari bilan faol ishtirok etishdi.

Ilmiy-amaliy konferensiyada kafedramiz mudiri, professor Dilbar Najmutdinova akusherlikda dolzarb mavzulardan biri bo‘lgan “Kesarcha kesish. Xavfsiz yechim yoki kelajakka tahdid” nomli ma‘ruzalarida zamonaviy akusherlikda kesar kesish amaliyotining o‘rni, chastotasi va asoratlari haqida to‘liq ma‘lumot berdi. Akusherlik va ginekologiya kafedrasining mudiri Farhod Shukurov “Gemorragik shok. Akusherlik qon ketishida infuzion-transfuzion terapiya” dolzarb mavzuni yoritib berdi. Akusherlik va ginekologiya kafedrasining professori Lagiya Abdullayeva “Surxondaryo viloyatida onalar o‘limini kamaytirish muammosi va yo‘llari” haqida so‘zladi. Tadbir davomida professor Nargiza Magzumova “Homiladorlik, tug‘ish va tug‘ruqdan keyingi davrda tromboembolik asoratlarni oldini olish” nomli ma‘ruzada akusherlik va ginekologiyaning eng og‘ir asorati bo‘lmish tromboembolik asoratlar haqida ma‘lumot berdi. Tromboembolik asoratlar yuzaga kelganda shoshilinch yordam ko‘rsatish, bu asoratlarning oldini olish choralari haqida o‘qib eshittirdi. Dotsent Fatima Ataxodjayeva “Sog‘liqni saqlash tizimidagi birlamchi tibbiy-sanitariya va akusherlik muassasalarida homiladorlar anemiyasining diagnostikasi, oldini olish va davolashdagi yangi mezonlari” nomli ma‘ruzalarida homilador ayollarda eng keng tarqalgan somatik patologiya hisoblangan anemiyani diagnostikasi va zamonaviy davolash usullari haqida batafsil ma‘lumot berib o‘tdi.

Konferensiyasi yakunida professor Dilbar Najmutdinova tomonidan “Akusherlik amaliyotida shoshilinch tibbiy yordam” mavzusiga bag‘ishlangan mahorat darsi interaktiv usulda namoyish etildi. Unda akusherlikda urgent holatlar yuzaga kelganda multidissiplinar komanda yordamida ayollarga birinchi yordam ko‘rsatishni qadamma-qadam bosqichlari yoritib berildi va barcha qatnashchilarga “Akusherlikda shoshilinch yordam” klinik qo‘llanmasi taqdim etildi.

O‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya nazariy va amaliy jihatdan akusherlikning dolzarb muammolarini yoritib berish bilan birga akademik mobilikni rivojlantirish uchun ham katta hissa qo‘shdi.

Nargiza MAGZUMOVA,

TTA Oilaviy tibbiyotda akusherlik va ginekologiya kafedrasini professori

## TAVALLUD AYYOM MUBORAK!



Turon fanlar akademiyasi akademigi, meditsina fanlari doktori, professor Ilmira Sa’dullayevna Roziqovaning oltmish yillik tavallud ayyomiga bag‘ishlanadi

*Ilmi bildirar ismin mazmuni...  
Umrin ma’nosini anglatar vijdon.  
Bugun – Haq ko‘klamin eng ko‘rkam kuni,  
Oltmishga kiribdi soliha inson.*

*Ota bilan ona – oy bilan quyosh...  
Rixsixon ayadan yodgor bu olam.  
Sa’dulla otaga munosib izdosh,  
Bardavom olimlar sulolasi ham.*

*Ilm – nina bilan quduq qazimoqdir...  
Alloh shunga loyiq sabot ham berdi.  
Yuksak parvozini belgilab taqdir,  
Rustam aka kabi qanot ham berdi.*

*Tib ilmida bo‘ldi ma’mur va aziz...  
Bu ham tabiatning bitta hikmati.  
Otabekdek o‘g‘il, Gulmiradek qiz,  
Oqil va oqila zurriyot ne’mati.*

*Bemorlar dardiga bo‘loldi malham...  
Kitoblar ham bitdi Sino singari.  
Amina, Iskandar, Komron, Ibrohim;  
Ulug‘ shajaraning davomchilari.*

*Qaldirg‘och hovliga inlar qurgan kez,  
Bahor dunyolarga bergan kuni zeb,  
Haqqingizga duo qilib, degaymiz,  
Yuz yoshda qutlamoq nasib bo‘lsin deb!*

**Qutbiddin NIZOMOV,**  
Turon xalq yozuvchisi, Respublika  
sog‘liqni saqlash a’lochisi,  
Alijon ZOHIDIY,  
Yevropa Tabiiy fanlar akademiyasi  
akademigi, tabobat va tarix fanlari  
doktori



*Xotira – ajdodlarga yuksak hurmat  
va ehtirom ifodasi.*



## Ustozga o'xshagim keldi



Bo'lajak yosh shifokorlar tibbiyot ilmini o'rganar ekan, ularni ustozlar qoldirgan o'chmas yog'dular albatta qiziqtiradi. Ko'rinib turibdiki juda buyuk shaxslar bobokalonlarimiz, buyuk ustozlarimiz, tibbiyot tarixida o'chmas iz qoldirgan tibbiyot ilmini yaratuvchilari professor, akademiklarimiz nomlari haligacha saqlanib, ilmga chanqoq yoshlar tomonidan munosib xotirlab kelinmoqda.

Bugungi kunda ana shunday lahzalardan biri Toshkent tibbiyot akademiyasida tashkil etilgan professor va akademik ustozlarimiz xotiralariga bag'ishlangan haftaliklar shular jumlasidan.

Akademiyamizda yaratilgan bunday imkoniyatlardan foydalangan holda ustozlarimiz xotiralarini havas bilan, qolaversa shunday insonlar ta'lim olgan oliy dargohda men ham tahsil olayotganimdan faxrlanib, g'ururlanib, ular haqida o'z fikrlarim, xulosalarimga tayangan holda maqola va tezislar yoza boshladim. Ustozlarimiz yaratgan tibbiyot ilmlari, ularning hayot yo'llarini qanchalik o'rgansam, ularga bo'lgan mehrim, hurmatim va havasim shunchalik ortib bormoqda. Hozirgi paytda bizning "Doktor reportyor" debat klubimiz a'zolari safi kundan-kunga ortib bormoqda. Talabalarning professor va akademik ustozlarimiz haqidagi maqolalari o'zi va tengdoshlarini tibbiyotga qiziqishini orttirib bormoqda.

Men ana shunday ustozlarimizdan biri O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Ikkinchi jahon

urushi qatnashchisi, akademik, gistolog olim Komiljon Ahmadjonovich Zufarov xotirasiga bag'ishlab maqola yozar ekanman, o'ylaymanki ushbu maqolam akademiyamizdagi ustozlarim va tengdoshlarim tomonidan sevib o'qilib, ustozimiz xotirasi yana bir bor yodga olinadi.

Komiljon Ahmadjonovich Zufarov 1925-yil 1-may kuni Toshkent shahrida tavallud topgan. 1942-yil Toshkent tibbiyot institutining davolash fakultetiga o'qishga

### ZUFAROV MAKTABI: BIZLAR UNGA MUNOSIB BO'LAYLIK...

qabul qilingan. 1951-yilda Toshkent tibbiyot institutini tamomlagan. 1954 yildan Mintaqaviy tibbiyot ilmiy-tadqiqot instituti patologiya laboratoriyasi va Yadro fizikasi institutining radiatsiya sitologiyasi laboratoriyasini boshqargan. 1955-1957-yillar Andijon tibbiyot instituti gistologiya kafedrasini mudiri va fakultet dekani, 1962-2002-yillarda Toshkent tibbiyot instituti gistologiya kafedrasini mudiri, bir vaqtning o'zida 1965-1971-yillarda Toshkent tibbiyot institutini rektori, 1977-1986-yillar O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh muharriri, 1988-1992-yillar "Fan va turmush" jurnali bosh muharriri lavozimlarida faoliyat yuritgan.

Asosiy ilmiy ishlari hujayralar ichida sekretsiya va so'rilish jarayonlari hamda ularning boshqarilish mexanizmini o'rganishga oid bo'lgan. O'zbekistonda

birinchi bo'lib elektron mikroskopiyani laboratoriyaga asos solgan. 1987-yili ingichka ichakdan so'rilgan ekzogen oqsillarning buyraklarda parchalanishi to'g'risidagi ilmiy kashfiyot muallifi, 1981-yili Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati, 1978-yili Bolgariya anatomistlar, gistologlar va embriologlar jamiyatining faxriy a'zosi. Ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari normal va patologik sharoitlarda organlar va to'qimalarning kompensatsion va adaptiv jarayonlarining funksional morfologiyasi; filtratsiya, sekretsiya, so'rilishning hujayra mexanizmlari va ularni tartibga solish. 1954-yilda nomzodlik, 1962-yilda doktorlik

dissertatsiyasini himoya qilgan. 56 nafar tibbiyot fanlari doktori va 156 nafar tibbiyot fanlari nomzodi tayyorladi. 500 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi.

Ustozimiz bu foni dunyoni 2002-yil 30-iyul kuni 77 yoshida tark etdi.

Dunyoga "Zufarov maktabi" nomi bilan mashhur yirik morfologlar maktabining asoschisi va Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi ustozimiz Komiljon Ahmadjonovich Zufarovning ilmiy-pedagogik faoliyati juda yuqori va yuksak darajada beqiyosdir. Men ustozni hayotini o'rganib, uning qilgan ishlaridan hayratda qoldim. Chunki bunday mashaqqatli va qiziqarli izlanishlar inson hayotini kelajakdagi o'rnini belgilab berishiga yana bir bor guvoh bo'ldim.

**Beklarbek SUYUNOV,**  
TTA Xalq tabobati fakulteti talabasi,  
"Doktor reportyor" debat klubi a'zosi

## XALQARO OLIMLAR ISHTIROKIDA ANJUMAN

Toshkent tibbiyot akademiyasiga Fransiya oliy psixomotor rehabilitatsiya instituti rahbari xodimlari – professor Jerar Erman, professor Fransuaza Jiromini va madam Estel tashrif buyurdi.

Xalqaro olimlar ishtirokidagi anjumanda magistrlar, klinik ordinatorlar, va yuqori kurs talabalari uchun mahorat darsi o'tkazildi. Mazkur jarayonga ilmiy ishlar bo'yicha prorektor, TTA professori F.Azizova rahbarlik qildi.

Professor Zarifboy Ibodullayevning "O'zbekistonda psixomotor rehabilitatsiya" bo'yicha Fransiya tajribasini qo'llash va milliy kadrlarni tayyorlash yuzasidan qilgan ma'ruzasi hamda Fransiya oliy psixomotor rehabilitatsiya (ISRP) instituti direktori Jerar Erman Fransiya tajribasi haqidagi batafsil ma'lumoti anjuman mohiyatini ochib berdi.

**Zeboniso RASULOVA**



*Keksalarni e'zozlash – ulug' qadriyat.*



**Oilada tibbiy madaniyatni oshirish — davr talabi. Ayniqsa, balog'at yoshidagi o'g'il-qizlar salomatligini muhofaza qilish dolzarb ahamiyatga ega. Shu bois mamlakatimizda bolalar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, jismoniy barkamol qilib tarbiyalashga katta e'tibor qaratilmoqda.**

Bolalarning o'sishi uch davrga bo'linadi: maktab yoshigacha bo'lgan davr — 7 yoshgacha, maktab davri — 7-14 yosh, o'smirlilik (balog'at) pallasi — 15-18 yosh.

Bolaning sog'lig'i kasalligi bor-yoqligi bilan emas, balki rivojlanishi, o'sishi bilan tavsiflanadi. O'sish va rivojlanish bir-birini taqozo qiladi.

O'sish — hujayra to'qimalari hisobiga tana vazni va hajmining ortib borishi, rivojlanish esa sifat o'zgarishi, organ va to'qimalarning funksional

takomillashuvidir. Buning asosida modda almashinuvi, energiya yotadi. O'sish va rivojlanish bir xil kechmaydi. Bu jarayonga biologik (genetik, nasliy) va tashqi ijtimoiy omillar, turmush sharoiti, to'la qiymatli ovqatlanish, jismoniy tarbiya va boshqalar ta'sir qiladi. Ayniqsa, oilaning moddiy jihatdan ta'minlangani, yashash sharoiti, ota-ona tarbiyasi katta ahamiyatga ega.

Balog'at yoshigacha o'g'il-qizlar rivojlanishi, o'sishi bir xil davom etsa-da, balog'at yoshida o'zgarishlar yuz beradi.

Rivojlanishda ikki davr — jinsiy etilishning boshlang'ich davri bo'lgan muddat va jinsiy yetilish pallasi nazarda tutiladi. Birinchi davrda qiziqish katta, biroq ichki mayl yetilmagan bo'ladi. Bu paytdagi suhbatlar, to'g'ri tarbiya katta ahamiyatga ega. Shu bois, yoshlarni qiziqtirgan savollarga batafsil va to'g'ri javob berish kerak.

Ikkinchi davr o'g'il bolalarda birinchi pollyutsiya, qizlarda esa hayz ko'rish bilan boshlanadi. Bu vaqtda bolalar tengdoshlaridan ko'pincha noto'g'ri ma'lumot oladi. Shuning uchun bu palladagi muloqot yaxshi natija beradi. Chunki bu paytda o'smirlar xulq-atvorida psixologik o'zgarishlar yuz beradi.

Balog'at yoshida kun tartibini to'g'ri taqsimlash, shaxsiy gigiyenaga rioya etish, to'g'ri ovqatlanish, o'qish, ishlash, dam olish, madaniy hordiq chiqarish, organizmni chiniqtirish, salomatlikni mustahkamlashga e'tibor berish

kerak. Ota-ona, murabbiy bola hayotini nazoratda tutishi lozim. Tasodifiy uchrashuvlar, bekorchilik, zerikish, nazoratsiz behuda vaqt o'tkazish spirtli ichimliklar iste'mol qilish, kashandalik, betartib jinsiy hayotning boshlanishiga sabab bo'ladi.

Erta boshlangan jinsiy hayot nafaqat inson salomatligiga, balki keyingi rivojlanishiga ham salbiy ta'sir etadi. Aqliy rivojlanishni, organizmning boshqa vazifalari bajarilishini izdan chiqaradi yoki sekinlashtiradi.

Qizlar uchun erta jinsiy hayot homilador bo'lib qolish va tug'ish bilan xavfli. Jismoniy va fiziologik yetilmagan organizm uchun bu og'ir vazifa. O'smir qizning jismoniy va psixologik holatiga

muammolar tug'diradi:

birinchidan, uni davolab bo'lmaydi. Tibbiyot qaramlikni jismonan yo'q qilsa ham, ruhiy tobelik yo'qolmaydi. Bu degani narkotiksiz yurish mumkin, lekin bu holat butkul barham topmaydi;

ikkinchidan, giyohvand avval hayotiy, keyin mehnat faoliyatini yo'qotadi;

uchinchidan, giyohvandlik moddalari inson ruhiyatini buzadi, ongini pasaytiradi;

to'rtinchidan, ota-onasi giyohvand chaqaloqlar har xil anomaliyadan azob chekadi, normal bolalar tug'ilmaydi;

beshinchidan, giyohvandlar jinoyat sodir etishga moyil bo'ladi. O'zini, xatti-harakatini idora etolmaydi.

Giyohvandlik moddasiga o'rganib qolish sababini bolani o'rab turgan oila a'zolari va do'stlari, yaqin insonlaridan qidirish lozim. Noto'g'ri tarbiya, ota-ona o'rtasidagi nizolar, ruhiy siqilishlar giyohvandlikka sabab bo'ladi. Oila yo'qligi, qarovsizlik ham asosiy sabablardan.

Turtli kasalliklarning oldini olish, spirtli ichimlik ichish, kashandalik, giyohvandlik, sog'liqqa zarar keltiruvchi boshqa xavfli odatlarni uzil-kesil yo'qotish hozirgi jamiyatimizdagi dolzarb masalalardandir.

Benuqson avlod tug'ilishi va barkamol tarbiyalanishida oiladagi totuv, musaffo muhitning o'rni katta. Biz ma'nan yetuk, aqlan sog'lom, qat'iyatli va sabrmatonatli, muhabbatli, vatanparvar, sadoqatli farzandlar tarbiya qilmog'imiz kerak. O'smirlilik bolaning erkin va ongli harakatlanishiga sharoit yaratish uchun juda zarur payt.

Kattalarning asosiy vazifasi yoshlarning ilm-fanga, hunarga rag'batini kuchaytirish, tinimsiz izlanish bilan hayotda o'z yo'lini topib ketishiga ishonchini shakllantirishdan iborat. Mamlakatimizda giyohvandlik vositalari va muqobillari, psixotrop moddalar hamda kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni targ'ib etuvchi mahsulotlar tayyorlash, tarqatish, sotish, bunday moddalarni iste'mol qilish uchun jalb etishga doir ma'muriy va jinoiy javobgarlikni kuchaytirish muammoning oldini olishga xizmat qiladi.

**F.AZIZOVA,**

**Toshkent tibbiyot akademiyasining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori**

## FARZANDINGIZNI O'SMIRLIKDAN TALAFOTSIZ OLIB CHIQING

zararli ta'sir ko'rsatadi, og'ir asorat qoldiradi. Nogiron, aqliy rivojlanmagan farzandlar dunyoga kelishi mumkin.

Bularning oldini olishning eng yaxshi usuli jismoniy mehnat, turmush qurgunga qadar o'qish, ilm-fan, jamoat ishlari bilan mashg'ul bo'lish, madaniy hordiq chiqarishdir. Yosh avlodni jinsiy tarbiyalash asosida jinsiy hayot va sevgi, hayot va oila tushunchalari yotadi.

Ota-onalar, o'qituvchilar, tibbiy xodimlar qizlarni g'ururli, or-nomusli, har qanday vaziyatda o'zini boshqara oladigan, xushmuomala qilib tarbiyalashi kerak.

O'smirlar bilan suhbatlarda jinsiy hayotni erta boshlash zararli ekani, tanosil kasalliklarga chalinish xavfi borligini tushuntirish, atrof-muhitga teran nazar bilan qarashni uqtirish, bola e'iborini sport, musiqa, san'atga jalb etish kerak. Keyingi paytda uchrayotgan og'ir kasalliklar balog'at yoshidagi boshlang'ich xastalikdir.

Giyohvandlik shular jumlasidan. Inson bu kasalga irodasi sustligi tufayli duchor bo'ladi. Bunday holat 18-25 yoshlilar orasida ko'p uchraydi. Birinchi marta ta'siri sezilmagandek tuyuladi. Qayta qo'llash inson irodasini zararlantirib, giyohvandlik moddasiga qaramlik hissini paydo qiladi. Yoshlar shuni bilishi kerak: narkotik va psixotrop modda kayfi uzoq cho'zilmaydi. Oqibati o'lim bilan tugaydi.

Giyohvandlik jamiyatga ko'p



*Kishi o'zganing baxtidan baxt topsa, u haqiqiy yashagan hisoblanadi.*



## TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUIYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI (2024-yil may)

№	Kafedra nomi	Lavozim, shtat birligi
<b>1-son davolash fakulteti</b>		
1.	1-son umumiy va bolalar xirurgiyasi	assistent – 1,0
2.	1-son fakultet va gospital terapiya va kasb patologiyasi	dotsent – 1,0
3.	1-son fakultet va gospital terapiya va kasb patologiyasi	assistent – 1,0
4.	Nevrologiya va tibbiy psixologiya	dotsent – 1,0
<b>2-son davolash fakulteti</b>		
5.	2-son umumiy xirurgiya	assistent – 1,0
6.	Tibbiy radiologiya	assistent – 1,0
7.	Tibbiy radiologiya	katta o'qituvchi – 1,0
8.	Dermatovenerologiya va kosmetologiya	assistent – 1,0
9.	Dermatovenerologiya va kosmetologiya	dotsent – 1,0
10.	Dermatovenerologiya va kosmetologiya	katta o'qituvchi – 1,0
<b>Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti</b>		
11.	Gistologiya va tibbiy biologiya	katta o'qituvchi – 1,0
12.	Gistologiya va tibbiy biologiya	assistent – 1,0
13.	Atrof-muhit gigiyenasi	dotsent – 1,0
14.	Atrof-muhit gigiyenasi	assistent – 1,0
15.	Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya	assistent – 1,0
<b>Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti</b>		
16.	Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi	katta o'qituvchi – 1,0
<b>Malaka oshirish fakulteti</b>		
17.	1-son fakultet va gospital xirurgiyasi	dotsent – 1,0
18.	1-son fakultet va gospital xirurgiyasi	katta o'qituvchi – 1,0
19.	1-son fakultet va gospital xirurgiyasi	assistent – 1,0
<b>Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti</b>		
20.	Pedagogika, psixologiya va tillar	katta o'qituvchi – 1,0
21.	Pedagogika, psixologiya va tillar	o'qituvchi – 1,0
22.	2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ	dotsent – 1,0
23.	2-son fakultet va gospital xirurgiya, transplantologiya	katta o'qituvchi – 1,0
24.	Ftiziatriya va pulmonologiya	katta o'qituvchi – 1,0

Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi.

Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.

MUASSIS:  
**TOSHKENT  
TIBBIYOT  
AKADEMIYASI**

MUHARRIR  
**TURDIQUL  
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAY'ATI:  
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinbosari),  
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,  
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV  
kompyuterida sahifalandi va Toshkent  
Tibbiyot akademiyasi RIZOGRAFda  
400 nusxada chop etildi.  
Manzilimiz:  
Toshkent shahri, Farobiy  
ko'chasi, 2-uy  
**Nashr uchun mas'ul**  
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot  
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda  
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi  
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun  
mualliflar javobgardir  
Bepul tarqatiladi